

***Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat
universiteti***

Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u
asboblari kafedrası

ASQARALI ODILOV

«Cholg'ushunoslik»

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

SAMARQAND – 2012

Muallifdan

Ushbu qo'lingizdagi ma'ruza matni o'zbek halq cholg'u asboblarning paydo bo'lishidan boshlab, to hozirgi davr musiqa cholg'ularini vujudga kelgan tarixi va taraqqiyotidagi asosiy bosqichlarni o'rganish va shu asosda tarixiy ma'lumotlarni yoritish, bir tizimga solish hamda umumlashtirish yo'lidagi daslabki urinishdir. Keyingi yillargacha o'zbek halq asboblari tarixi o'zlashtirilmagan muammolardan biri bo'lib kelardi. Shu munosabat bilan "O'zbek halq cholg'u asboblari tarixi" iqtisosi bo'yicha oliy va o'rta maxsus musiqa bilim yurtlari talabalari ushbu tarixdan yetarli darajada ma'lumotga ega emas edilar.

Shundan kelib chiqib ushbu mavzuga ozgina hissa qo'shishni maqsad qilib qo'ydim. Hozir to'plangan mavzularda bir oz kamchilik bo'lishi mumkin.

«O'zbek halq musiqa asboblari tarixi» kursi quydagilardan iborat:

a) Qadimda xalq cholg'ularini ijrochilik tarixi

b) O'zbek halq cholg'ularining XX asrda qayta ta'mirlab, xromatik yarim tonliklariga o'tishi.

v) Yangi sozlar va cholg'uchilar musiqa san'ati.

g) Toshkent Davlat konservatoryasining (orkestr sinfi) tashkil etilishi (1948 yil), cholg'ularni turlarga bo'linishi (***prima, alt, bas, kontrabas***).

Risolada yana nodir o'zbek halq cholg'u asboblarni yasagan mashhur soz ustalari haqida qisqacha lavhalar va xozirgi zamon o'zbek halq cholg'ularining yaratilishidagi ovoz hajmlari va chalish imkoniyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar, shuningdek mashhur cholg'uchilar va konkurs g'oliblarini nomlari qayd etilgan.

Ushbu ma'ruza matnini tayyorlashda yaqindan yordam bergan Samarqand Davlat Universiteti "Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti" Musiqiy ta'lim prof-o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

KIRISH

O'zbek halq cholg'u asboblariida ijro etish san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'alarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 yildagi Ayratom shaxristoni arxeologik qazilmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, o'zidan ilgari turli musiqa asboblari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramiz boshlarida turli tuman halq cholg'u asboblariidan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, halq sayillarida ijrochilikda keng foydalanilgan. Halq musiqa cholg'u asboblari asrlar davomida inosnlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Tasviriy san'at asarlari, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asrdayoq ikki turdagi halq cholg'u ansambli mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda halq musiqa ijodining og'zaki an'alari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasinnig har xil janrlari, turkumlari, rang-barang musiqa san'ati turlari, ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. O'rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqi o'laroq uch xil mustaqil uslub kasb etadi.

- 1) Farg'ona – Toshkent yo'nalishidagi (chor maqom)
- 2) Xorazm ijrochilik yo'nalishi (olti yarim maqom, panjgox ham kirgan)
- 3) Samarqand – Buxoro ijrochilik uslubi, ya'ni shashmaqomdir.
- 4) Qashqadaryo – Surxandaryo dostonchilik san'atlari

XIX asr oxiri XX asr boshlarida halq cholg'ularida ijrochilik san'ati rivojlanishi, yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit, Ovropa madaniyati ta'siri bilan bog'lanadi. XX asrnnig 50-chi yillaridan yangi sozlarning orkestr tarkibiga kirib kelishi va ularning orkestrdagi imkoniyatlari oshdi. O'zbek halq cholg'u asboblariini takomillashtirish (oilalarga bo'lish) kabi qator ilmiy izlanishlardan so'ng, o'zbek halq cholg'ulari soni anchaga ortdi.

Shunday qilib, o'zbek halq cholg'u asboblariining paydo bo'lishi va takomillashining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar, musiqa ijrochilik texnikasi, imkoniyati va taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi.

Ma'ruza matnida Respublikaning oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari talaba va o'quvchilariga "O'zbek halq cholg'u asboblari tarixi" va nazaryasini o'rgatish, yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, musiqa san'atini rivojlantirish hamda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va aholqiy sifatlarini oshirishda katta xizmat qiladi.

1 – Mavzu: O'rta Osiyoda musiqa cholg'u asboblarning paydo bo'lgan davri

Halq cholg'u asboblari, ma'lumotlarga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Keyinroq halq ustalari tomonidan qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o'tgach esa nay, naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O'sha paytdagi nay cholg'u asboblari hozirgi zamon zamonaviy ko'p teshikli naylardan bir oz farq qilgan.

Vaqt o'tib, ushbu cholg'ular takomillashib, ko'p yillik naylar yuzaga keldi, so'ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'la boshladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek halq cholg'u asboblari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoni G'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), Sharqda esa Grek Baqtriya Davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O'rta Osiyoning Janubiy qismida qudratli Ko'shon shohligi tashkil topdi. Mahalliy Kushon sulolasi ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi ularoq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo halqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'u asboblari ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S. L. Tolstov, V. A. Vyatkin, M. V. Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay rubobsimon cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbra, nog'ora va shu singari cholg'u asboblari chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproq qal'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, shemani, (musiqor) chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'pincha yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli",

“Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg’u ansambllari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog’ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa asboblari keng qo’llanilgan.

Feodalizm davrida arab istilosi O’rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta’sir o’tkazdi. VII-VIII asrlarda arab xalifaligida tirik jonzo’ni tasvirlashni taqiqlovchi, islom dinini yoyilishi, devoriy sur’atlarni shu jumladan musiqa cholg’ulari tasvirining barham topishiga olib keldi.

IX asrga kelib Buxoro yirik madaniy markazga aylandi va ayni paytda yakka navoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o’z ichiga olgan vokal-cholg’u musiqa turkumlari rivojlandi. O’rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqa ustaxonalari paydo bo’lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz shogird an’analari qaror topib rivojlandi. Musiqa cholg’u asboblari ham shakllandi. Asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo’lib, ular o’z risolalarida musiqa cholg’usini jamiyatda tutgan o’rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Forobiyning (873-950) “**Musiqa haqida katta kitob**” (“**Kitob al-musiqa al-kabir**”), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) “**Davolash kitobi**” (“**Kitob um-shifo**”) qomusidagi “**Musiqa haqida risola**”, Al Xorazmiyning X asr “**Bilimlar kaliti**”, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “**Oliyjanoblik haqida kitob**” yoki “**Sharafiy kitobi**”, Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “**Musiqa haqida risola**” kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg’u asboblari haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Safiuddin Urmaviy istedodli ud cholg’uchisi Urmiya shaxrida tug’ilgan (Ozarbayjonlik) mashhur xonanda, uning eng katta yutug’i “**Modius**” ladning mukammal yo’nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn Zaylning VI asr “**Musiqa xaqida to’liq kitobi**” va “**Kitob ul-kabi fil-musiqiy**” uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobdir. U yangi usulni, musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog’iy XV asr, Ozarbayjonning Marog’ shahrida tug’ilgan bo’lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o’tgan va Hirotda vafot etgan. “**Musiqa ilmda ohanglar to’plami**” (“**Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy**”) risolasida musiqa haqidagi ta’limotni kamoncha, yetti torli g’ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg’ulari borligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi.

Al-Husayn XV asr asosan O’rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqa asbobi dutor haqida ma’lumot bergan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo’lib, o’z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozinin musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan.

Al Forobiy (IX asr) mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg’u nay asbobini, torli mizrobli cholg’u tanbur va ud musiqa asboblarni juda zo’r mahorat

bilan ijro etgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u "Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg'ular bor", deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida halq cholg'ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi. Lyutnya-torli mizrobli cholg'usi o'sha davrda eng keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u asbobi ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkazorti xalqlari orasida, O'zbekiston va Tojikiston cholg'uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelayapti. (Zamonaviy ud namunalari T.D.K. ning sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud)

"Musiqa xaqida katta kitob" da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya'ni (Dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deydi.

Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish uslubiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali, tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay, yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylanma naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uning Vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, Ozarbayjonliklar nay (juda kam uchraydi), qirg'izlar uo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi) o'zbeklar nay deydi.

Olim va mashhur cholg'uchi Forobiy surnay musiqa asbobi haqida bir qator ma'lumot beradi. Uning o'rik yoki tut daraxtidan ishlanganligi va o'sha davrda keng tarqalgan musiqa asbobi ekanligi haqida to'xtalib o'tadi.

Forobiy, shuningdek, Dunay, (Mizmar) ni ham alohida tilga oladi. Dunay hozirda qo'shnay yoki turkman cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamishdan yasalgan cholg'u) ga o'xshatadi.

Forobiy o'z risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshash bo'lib, pardalari dutor pardalariga o'xshagan, dastasi ancha uzun bo'lganligini, asosiy qismini yog'och dekali pastki qismi esa charmdan ishlangan, dekali musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Shuningdek, musiqa asbobi changni ham ta'riflaydi. O'sha vaqtgacha changning 15 ta tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovush qatorga ega deydi. Yana Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan "Cholg'u asboblari haqida kitob" ida olim tanbur, rubob, chang, cholg'u asboblarini udda chalayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga, uyg'un jo'r bo'lish, uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'u asboblarini o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z davri musiqa cholg'ularini ikki guruhga bo'ladi: Mizrobli, noxunli, (Borbad, tanbur, rubob) va butun rezanator qapqog'i bo'ylab tortilgan ochiq cholg'u asboblari (shohrux, chiltor, lira), chang (arfa). Olim, ohangi inson ovozigga yaqin turadigan cholg'u asboblari ud, rubobni batafsil ta'riflagan.

O'sha davrda yashab ijod etgan Safiuddin Urmaviy musiqa ilmini tizimini (sistemi) ni rivojlantiradi. U "**Taqvadorlik kitobi**" da ud cholg'usini ta'riflaydi: "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud asbobi eng mashhur va zamonaviydir". Udning dastasining to'la chizmasi, uni sozlash haqida tasavvur beradi. A. Navoiyning tasdiqlashicha, mavjud 12 maqom qadimiy musiqaning asosidir.

Marog'iy (XIV asr) g'ijjakning ipak yoki pay torlari jez torlariga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang beradi deydi, o'zining g'ijjak yasash usuli haqida bergan ma'lumotlarida.

Qo'sh torli cholg'u asbobi dutor haqida ilk ma'lumotlar Al-Husayniy (XV asr) ning musiqa kononlarida uchraydi. "Dutor" atamasining paydo bo'lishiga, uning shaklan o'xshash, ko'p torli boshqa cholg'u asboblaridan (Ozarbayjoncha soz, ud, tanbur kabi) farqlash asosiy sabab bo'lgan.

XVII asrning mashhur ud va chang cholg'usi ijrochisi Darvish Ali o'zining risolasida o'sha davrda qo'llanilgan cholg'u asboblari haqida batafsil ma'lumot bergan. U udni cholg'ular "**Shohi**" deb ataydi. Udning juft sozlagan o'n ikki tori bo'lgan. Farobiy davridagi dastlabki uddan bir muncha farq qilgan. Risolada yozilishicha chang cholg'ular homiysi Zuhroga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Nay ham qadimiy cholg'u sifatida tilga olinadi. Yana risolada qonun, rubob, qobiz, musiqor, enbon nayi (xitoyda tarqalgan) ruhavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ulari to'g'risida yozilgan. Darvish Ali ta'rif bergan cholg'u asboblaridan yettisasi: tanbur, chang, ud, qonun, rubob, qobiz, g'ijjak, nay o'sha davrda juda keng tarqalgan edi. risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abdul-lohi-lori, Mavlono Merik changi Buxoriy, Mavlono Qosim-Rabboniy, Sulton-Ahmadiy "Devona", rubobchilar aka-uka Shayx Shamsi-Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustozlarning nomlari tilga olinadi. G'ijjak cholg'uchisi Shoh Quliy-G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etgan va uning yaratgan muhammas ritmidagi peshravi "Husayniy" alohida ajralib turadi.

Darvish Ali, naychi Sulton Ahmadni ijro etgan kuylariga, nayning sehrli ohanglariga, san'at ixlosmandlari chuqur ta'surot qoldirganliklarini aytadi.

Ud cholg'usini Sulton Muhammad Uddiy Samarqandiyni muallif, noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqa ijodkori sifatida tilga oladi. Buxorolik rubobchi Shayx Shamsiy-Rabboniy chalgan rubobni ohangini eshitib betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan. Shuningdek o'sha davrda o'n ikki maqom (Rahoviy, Husayniy, Zangula, Rost, Ushshoq, Navo, Bo'slik, Hijoz, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzruk) mavjud ekanligi va shular asosida musiqa asarlari yaratgan bastakorlar ko'p ekanligini aytib o'tadi.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u šayd etgan cholgʻu asboblarning kattagina qismi (nay, surnay, karnay, chang, qonun, rubob, ud, tor, tanbur, gʻijjak, qobiz, doira, nogʻora, dutor) Oʻrta Osiyoning Oʻzbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, ham shu kunlargacha saqlanib keldi va ular takomillashmoqda. Shunday ekan, bu cholgʻularni oʻzbek halq musiqa cholgʻulari, deb atash oʻrinlidir.

Oʻrta-asr Sharq olimlarining asarlarida musiqiy cholgʻular, ular yaratgan maʼnaviy madaniy muhit haqida tarixiy maʼlumotlar yetarli bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu halq cholgʻularning texnik va badiiy imkoniyatlari juda oz.

XVIII asr oxiri- XIX asr boshlarida oʻzbek musiqa madaniyatida halq va professional musiqa sanʼatining koʻplab yangi turlari takomillasha boshladi: katta ashula, katta oʻyin, Shodiyona, Mavrigi, Navroʻz Shashmaqomlar, Chor maqom unga (dugoh Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz) kirgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur boʻlgan. Mashhur xonanda va sozandalar Domla Halim Ibodov, Usta Shodi Azizov, Levi Boboxonov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Sodirxon Bobosharipov, Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov, Fazliddin Shahobovlar shashmaqomga yangi hayot baxsh etishdi. Oʻzbek halq cholgʻu asboblarining ijroviy imkoniyatlari doimiy kengaydi va takomillashdi.

Musiqa ustalaridan, xalq cholgʻularni yanada mukamallashtirishni talab etishdi. Bir oz vaqtdan soʻng qashqar rubobi va chang singari cholgʻu asboblarini ovozlarini yangidan-yangi yangradi.

XX asr boshlarida musiqa asboblarini yaratishda halq musiqachiligini rivojlantirishda Usta Umar Ali koʻp mehnat qilib, cholgʻuchilarga tanbur, rubob, dutor, gʻijjak, qobiz, nay, surnay va shunga oʻxshash bir qancha musiqa cholgʻularini oʻz ustaxonalarida yasagan.

Uning birinchi shogirdi Toshboy Sultonov boʻlgan va ular oʻzbek musiqa cholgʻusini yasashda juda katta ishlar qilganlar. Usta Toshning shogirdi esa Usta Usmon Zufarovdir.

2 – Mavzu: XX asr boshlaridan hozirgi davrgacha oʻzbek halq cholgʻu asboblarining takomillashuvi (rekonstruksiya qilinishi va rivojlantirish) hamda ularning ijrochilikda tutgan oʻrni.

Musiqa cholgʻu asboblarini (rekonstruksiya qilish) oʻzgartirish yaʼni ularni yangi texnologiya, muayyan shakllarida oʻzgartirishlar kiritish bilan yasashni anglatadi. Undan asosiy maqsad tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholgʻularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, (tovush tusi) nozikliklariga erishgach, 12 bosqichli ravon surʼatlarga boʻlingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovushqatorlarni kengaytirishdir. Demak rekonstruksiya, musiqa cholgʻu asboblarini takomillashtirish, cholgʻularini mustahkamligini, chidamligini, ayrim qismlarning sezgiriligini oshirish, tovush (ohang) hosil qilish sifatini, zamonaviy

ijrochilikning yuksak texnik va badiiy talablariga javob bera oladigan darajada yaxshilashni anglatadi.

Qardosh xalqlar musiqasi tadqiqotchisi V.M.Belyayev o'zining "O'zbek xalq cholg'u asboblari" kitobida (Moskva 1933 yil) o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish zarurligi muammosini ko'tarib chiqdi. U hozirgi paytda universal nota yozish vositasi sifatida Ovropa nota yozuvi asosida o'zbek musiqa asboblari standart tuzilishini aniqlanishni taklif etdi.

O'zbek halq cholg'ulari xilma-xil bo'lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatda qiyin vazifa edi. Asta-sekinlik bilan an'anaviy cholg'ularning eski namunalari o'rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi namunalar paydo bo'la boshladi, va mavjud bo'lgan musiqa asboblari yanada takomillashtirishga urinishlar bo'ldi. Chang, g'ijjak kabi cholg'ularga qo'shimcha torlar qo'yilgach, bu qo'shimcha torlar ularning ohang doirasini ancha kengaytirdi.

XX asr 30-yillarning boshlarida musiqa cholg'ulari yasash ustasi Usta Usmon Zufarov (1892 -1981 yil) ko'plab dutor, tanbur, g'ijjaklarning turdosh oilasini yaratdi.

Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida saboq bilan ishladi. O'sha paytdagi chang kichik hajmga (diapazonga) ega edi. Izlanishlar natijasida M.Xarratov changning yuqori registrini qo'shimcha torlar va xaraklar hisobiga kengaytirdi. O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari milliy ansamblning rahbari Yunus Rajabiy, Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor bas (katta dutor) g'ijjak bas (katta g'ijjak) g'ijjak alt namunalari yaratdilar. Bu cholg'ular unison va ansambl jo'rligida, keyinchalik orkestr tarkibiga kiritildi.

O'sha paytda musiqa asboblari yasash uchun maxsus ustaxonalar ochish boshlandi, Namangandagi musiqa ustaxonasiga taniqli xalq sozandasi Usta Ro'zimat Isaboyev (1885-1964 yil) boshchilik qildi. U ijrochilar tomonidan keng qo'llanilgan bir necha yarim tonli xromatik chang yasadi. Buxorolik Usta Hoji ota, Usta Tohirjon Davlatov, Usta Najmiddin Nasriddinov, Usta Ma'rufjon Toshpo'latovlar bir qancha o'zbek xalq cholg'u asboblari hozirgi zamonaviy yangi turlarini yaratishdi.

Toshkentda qo'shnay va surnay asbobini taniqli sozandalar Xayrulla Ubaydullayev, Usta Qayum surnaychi takomillashtirishga urinishdi. XX asr 30-yilning o'rtalaridan boshlab o'zbek xalq cholg'u asboblari sistematik tarzda takomillashtirish ishlari qizg'in tus oldi.

A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir gurux soz ustalari Usta Usmon Zufarov, V.A.Romanchenko, A.A.Kevkoyans, S.Ye.Didenko, V.V.Andreyevning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayanib, dutor va tanburni turdosh oilalarga bo'lishga harakat qildilar. Asos sifatida sof yarim ton hosil qiluvchi, ya'ni xromatik teng yarim tovushqatoriga ega 12 bosqichli ravon sur'atlarga bo'lingan tovush qator qabul qilindi.

Keyinroq g'ijjaklarning kvarta, kvinta sozli turkumi yaratildi, ruboblar takomillashtirildi, prima (kichik rubob) ixtiro qilindi. Yangi musiqa asboblari

avvaliga A.I. Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida tashkil qilingan o'quv cholg'u orkestr sinfida sinaldi. Keyinchalik O'zbekiston Davlat filarmoniyasi orkestrida cholg'ularni rekonstruksiya qilish tajribaxonasini o'tadi.

1943 yilga kelib xalq cholg'ularining rivojlangan turlari anchaga ko'paydi. 50-yillarga kelib sinov tajribaxonasida Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qoraqalpog'iston xalq musiqa cholg'ulari ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi. Qirg'iziston uchun qobizlar: prima, sekunda, alt, (pardali va pardasiz) bas va kontrabas turlari, torli mizrobli qobizlar: prima, tenor, alt, kamonchali qobizlar; alt, kontrabaslar, Qoraqalpoq cholg'ularidan dutorlar turkumi, mizrobli dutorlar paydo bo'lishi va orkestr tuzilishidagi ulkan yutuqlar yuzaga keldi.

1948 yilga Toshkent Davlat konservatoriyasida xalq cholg'u ijrochiligidan ta'lim berish boshlandi va oradan bir oz vaqt o'tgach orkestr sinfi tashkil qilinib cholg'u ijrochiligi rivojlanib ketdi. Endilikda nafaqat o'zbek kuylari, balki qardosh xalq musiqalari, Ukraina, Maldaviya, Turkman, Tojik, Qoraqalpoq, Uyg'ur musiqalari bilan bir qatorda Ovrupa kuylarini ham ijro etish yo'lga qo'yildi.

1955-60- yillarda orkestr ijrochilar soni yuzga yaqinlashib bordi, orkestr tarkibida urma zarbli litavra, triugolnik, baraban, doiralar, torli-kamonchali musiqa cholg'ulariga g'ijjak: prima alt, bas va kontrabaslar, torli urma chang cholg'usining prima, tenor, alt, bas, tanbur I-II, torli-mizrobli prima ruboblar, afg'on rubobi va qashqar ruboblari, shuningdek dutorlar oilasi: prima, sekunda, alt, tenor, bas, kontrabaslar, damli puflama asboblari nay, pikkalo, goboy, klarnet, surnay, qo'shnay asboblari kiritildi va shu musiqa cholg'ulari ijrosida turli xalqlar musiqasini ijro etish imkoniyatlari yaratildi.

3 – Mavzu:Urma zarbli musiqa cholg'u asboblari guruhi.

Doira Xalq cholg'u asboblari nng paydo bo'lish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Musiqachilikda dastlab **urma zarbli** cholg'ular paydo bo'lgan. Bular Nog'ora, chindovul, childirma, dovul va doyrallardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doyra cholg'u asbobi o'zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.

Musiqa sohasida, O'rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o'zbek usullari, ya'ni ritmik yo'llari va ularning rivojlanish usullari alohida o'rin egallaydi. Usullar qoida bo'yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo'llaniladi. Eng ko'p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblari, O'zbekistonda, Tojikistonda va Uyg'ur xalqlari, shu bilan bir qatorda, Sharqda o'zining shirali ovozigacha ega bo'lgan, musiqa cholg'u asbobi doyra hisoblanadi.

Doyra iborasi ba'zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa «Dappchi»-childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doyradast, Farg'onada chirmandachi, Samarqanda esa doyrachi deb yuritiladi.

O'zbek xalqi qadimdan doyra asbobini juda ardoqlab kelgan. O'tmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, to'y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayillarga chaqirganlar. Jumladan: "Hosil bayrami", "Uzum sayli", "Qovun sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay va nog'ora, doyra kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

Buyuk Shark mutafakkirlarining merosi, halq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Darvish Ali o'z davri (XVII asr) da mavjud bo'lgan cholg'u ansamblari va ularning ijrochilari haqida ma'lumot bergan. Saroyda 60 cholg'uchidan iborat ansambl bo'lgan. «Nog'ora xona» deb atalgan 60 kishilik cholg'uchilar ansamblni nog'orachi boshqargan. Darvish Ali misol tariqasida shunday dalilni keltiradi:

«Sulton Husayin saroyida ansamblning rahbar-mehtar vazifasini nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy Miroqiy bajargan. «Nog'ora xona» nog'ora va damli musiqa cholg'ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona ko'zda tutiladi.

Bizning jumhuriyatimizda doyra ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda o'z hissasini qo'shgan Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o'tamoqda. Mashhur doyrachilar G'ofur Azimov, G'ofur Inog'omov, Rahim Isaxo'jayev, Evner Barayev, Qahramon Dadayev, Ravshan Akbarbekov, Odil Kamolxo'jayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, To'ychi Inog'omovlar ustaning ananalarini davom ettirdilar.

Shuningdek, Toshkent Davlat konservatoriyasi dosenti A.XLiviyeu ham "Doyra uchun etyudlar" to'plamini yaratgan edi. Sam.DU. musiqa fakulteti dosenti Ya.Haqqulov "Doyra uchun pyesalar" to'plami yaratganlar. A.Rasulov nomidagi Sam. DSBYu katta o'qituvchisi Asliddin Sirojev "Doyra uchun pyesalar» yaratdilar, A.Ashrafxo'jayev "Doyra sinfi bo'yicha xrestomatiya yozganlar".

Doyraning tuzilishi

Doyra ko'rinishidan oddiy aylanma shaklida bo'lib, diametri taxminan 400 mm bo'lgan, gardishi ilgari uzum zangidan qilingan, so'ngi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik bo'laklarga bo'lib, ularni bir-biriga ulab yasaladi. Doyraning gardishiga buzoq yoki baliq, ba'zan toyning terisidan qoplangan. Gardish o'rtasiga qirqdan ortiq halqachalar taqiladi. Bu halqachalar doyrani chalganda ijroga qo'shimcha sado beradi. Bu halqachalarning nomi ***shing'iroq, shilshila*** deyiladi, shing'iroqlar mayda doiracha shaklida bo'lib, misdan va temir metallardan ishlab yasaladi. Doyrada 2 ta asosiy tovush bor. Biri past "bum" (Xorazmda "gup") ikkinchisi baland "bak" (xorazmda "toq") deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush "bakko" yoki «bakka» (tak-tak) yoki (bak-bak) "taka" deb yuritiladi. Ilgarilari Bum (gup) 1ta chorak notaga teng bo'lgan. Bak (tak) ham 1ta chorak nota

hisoblangan. Bak-bak (tak-tak) 2 ta-choraktalik notaga teng. Bakka (taka) esa 2 ta 8 talik notaga teng. Agar taktlar o'rtasida pauza kelsa "Ist" so'zi qo'llanilgan. Masalan: bakka bum bak ist baka bak.

30 yillardan so'ng doyra usullari, ya'ni "Bum" chiziq ostiga "Bak" esa chiziq ustiga yozilib, ijro etiladigan bo'ldi. Bu doyra usullarini A.Eyxgorn, V.Leysok, N.Mironov, V.Uspenskiylar bir nota chiziq oralig'ida nota yo'lida yozganlar.

Doyrani tovush balandligi noaniq, ya'ni uning terisi qanday tortilganiga qarab sado beradi, aniq bir nota, ya'ni tovush, ovoz bir xil chiqmaydi. Bum bilan bak oralig'i kvarta intervaliga yaqinroq. Ijro har xil usul bilan kelishi, barmoqlar harakatida tovushlar o'zgarishiga olib keladi.

Doyra ijrosi, o'ng qo'l bilan chap qo'l harakatiga bog'liq, doyrani qaysi yeriga, gardish o'rtasiga yo chetiga yoki bo'lmasa gardishdan ozgina o'rtasiga yaqinroq urib cholish, o'ziga xos tovush chiqaradi. Ba'zan barmoqlarga metaldan yasalgan noxun taqilib chalinadi. Mana shunaqa ijro etilgan bum bilan bumni, bak bilan bakni farqi juda katta bo'ladi.

XX asrning 50-60-yillariga kelib, doyra usullari A.I.Petrosyans tomonidan o'zgartirildi, Toshkent eksperimental laboratoriyasida tasdiqlanib, ko'pchilik musiqashunos olimlar tomonidan 4 qatorlik doyra usul yuli joriy etildi va hozirgacha qo'llanilib kelinmokda. Har bir qo'lning, ya'ni o'ng va chap qo'llarning ovozlari tovushlari alohida yoziladi.

Quyida doyrachilikda don taratgan mashhur va mohir doyrachilar xotirasini yodga olamiz.

Usta Olim Komilov, To'ychi Inog'omov, G'ofur Azimov, Bolta Sharipov, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Rashid Nurmehammedov, Rahmon Otaboyev, Samarqandlik Baxtiyor Jobirov va boshqalar.

Endilikda sitqi dildan xizmat qilib kelayotgan doyrachilar: Rahim Isaxo'jayev, Qahramon Dadayev, Tal'at Sayfiddinov, Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Rahmatullo Samadov, Abbos Qosimov va boshqalar.

Nog'ora

Nog'ora-urib chalinadigan o'zbek xalq musiqa asbobi hisoblanadi. Halq cholg'ularining paydo bo'lish tarixi esa eramizdan avvalgi II ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'u asboblarni paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, shuningdek, ovga chiqishlar ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Nog'oraga o'xshash cholg'ular bilan shovqinli cholg'ular ham o'sha paytda paydo bo'lgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari, tasvrfiy san'atda va adabiy merosimizda ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ularining asosiy tiplarini barqarorligini tasdiqlovchi boy manba berilgan. Ikki guruhga bo'lingan cholg'u ansambli mavjudligi ko'rsatilgan. Birinchi doyra va nay jo'rligida, ansambl (xonaki tipdan) ikkinchi damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, surnay, bo'laman, doyra, nog'ora) ansambli.

Ansamblning ikkinchi tipi ko'proq harbiy orkestr sifatida foydalanilgan. Buni quyidagi satrlar tasvirlaydi: "Karnay va nog'oralar chalindi, saf tortgan sipohlar bir ovozda uch karra harbiy xitobni takrorlaydilar". (Boburnoma Toshkent., 1948 yil 100 bet)

Nog'oraning tuzilishi

O'zbekistonimizda ijro etiladigan nog'ora asosan sapoldan yasalgan bo'lib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'orani ko'pincha ikkitasi chalinadi, bayramlarda, sayillarda, to'y-hashamlarda chalinadigan nog'oralar bir oz kichikroq bo'ladi. Ikkalasi bir-biridan kvarta soziga farq qilishi kerak. Nog'ora o'zi aniq ma'lum bir sozga ega emas. Shunga ko'ra, tovushi ham aniq bir balandlikka ega emas. Nog'oralardan birini (kichigi) bak, ya'ni baland tovush, ikkinchisi bum, ya'ni past tovush beradi.

Nog'ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, halq sayillarida katta nog'ora ishlatiladi. Buni qo'sh nog'ora deb ham yuritiladi. Nog'orani asosan ikkita ingichka uzun kaltakcha (cho'p) bilan urib chalinadi. Nog'orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bulganligi uchun, buning notalari bir chiziqda quyidagiga yoziladi.

Chiziq tagidagi notalar bum, ustidagi notalar esa bak tovushini bildiradi. Nog'ora O'zbekistondan tashqari Tojikiston, Qirg'iziston va halqlarda ham qo'llaniladi.

Surnay chalganda usulni nog'ora bilan saqlaydilar. Nog'ora usullaridan biri "Shodyona" usulidir.

Safoyil.

Safoyil- musiqa asbobi Xitoy, Uyg'ur xalq cholg'u asbob sifatida keng tarqalgan musiqa cholg'usidir. Safoyil cholg'usining ko'pincha raqsona, marshona kuylarda uchratish mumkin. Uyg'ur xalq raqslarida ham keng qo'llaniladigan musiqa cholg'usi hisoblanadn.

O'zbekiston va Tojikistonda bu cholg'u asbobi keng qo'llanilib kelmoqda. Safoyil musiqa asbobi, tuzilishidan shiqildoqli urma zarbli cholg'u asbobi guruhiga kiradi. Safoyil ikki bo'lak kattiq yog'och kaltakchasidan iborat bo'lib, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachaga o'rnashtiriladi.

Safoyilni silkitib yelkaga urib shovqinli, turli xil murakkab tovush chiqarishadi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 400 mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg'uchisi yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi.

"Soqiynoma" va "Qashqarcha" kuylarida ham safoyil cholg'usi ishlatilib, ritm berib, kuchli hissani tovush bilan yetkazib beradi.

Qayroq

Qayroq-O'rta Osiyo xalqlarining o'rtasida keng tarqalgan urma zarbli musiqa asbobi hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda qadimda saroy marosimlarida bo'ladigan bazmlarda qayroq ijrosi ko'p ishlatilgan. Asosan bu cholg'uni ayollar ijro etishgan.

O'zbekistonda jumladan Xorazm va Buxoroda qayroq cholg'usini ko'p ishlatadilar. Raqslarda ijro etiladigan qayroq cholg'usi, yapaloq, tekis qilib silliqlangan to'rtta toshdan iborat bo'ladi. Ijrochi har bir qo'lga bir juftdan ushlab, qayroqlarni silkitib yoki titratib har xil kerakli usullarni beradi. Qayroqda biror kuy, raqs yoki ashula usulini (ritmini) ijro etish paytida, ijrochi har xil milizm ya'ni milliy bezaklardan foydalanadi.

Odatda qayroqni raqs tushuvchi o'zi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni o'z raqsiga jo'r qiladi. Qayroq cholg'usida ijro etiladigan kuylardan: «Qayroq o'yini», «Norin-norin», «Xorazm lazgisi» va shunga o'xshash ra'ssona kuy qo'shiqlardir.

Chang

Chang cholg'usi juda ko'hna va qadimiy cholg'ulardan hisoblanadi. Abu Nasr Muhammad Forobiyning ta'kidlashicha o'sha davrdagi changning 15 ta tori bo'lgan, ikki oktavaliq musiqa cholg'ulari guruhiga kirgan. Oralig'i teng yarim ton tovushlarga ega bo'lgan. Risolada ta'rif berishicha barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Ayniqsa ud cholg'usida ijro etilayotgan kuyga, tanbur, rubob, chang uyg'un jo'r bo'lishi uchun, sozlash usullarini tushuntiradi. Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning "Davolash kitobi" deb nomlangan qomusining " Musiqa xaqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolada cholg'ular ikki guruhga bo'linganligini ta'riflaydi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ular (shohrux, chiltor, lira) chang va arfa asboblardir.

XVII asrda yashab ijod etgan mashhur musiqashunos olim Xofiz Darvish Ali chang cholg'usidagi mukammal ilm olgan cholg'uchi hisoblangan. U kishining ustozlari Toshkentlik Amir Fathiy bo'lgan. Abdurauf Fitratning ma'lumot berishicha XVII asrda Abdullaxon zamonidan Imomqulixon zamonigacha bo'lgan mashhur musiqashunoslar: Hofiz Darvish Ali changchi, Buxorilik dutorchi Mahmud Ishoq o'g'li, Toshkentlik Amir Fathiy, Samarqandlik Mavlono Boqiy Zardo'z, Hojagiya Ja'far qonuniy, Hofiz Tonish, Hofiz Turdiy qonuniy, Mirza arabiy Qo'ng'iroq, Qubuzchi Hofiz Poyanda, Qubuzchi Shayx Ahmad, Qubuzchi

Mirmastiy, Balxlik ustod Abdullo Naychi, tanburchi Xo'ja Navro'z, Husayin Uddiy, g'ijjakchi ustod O'zbek va boshqalar.

Darvish Ali (XVII) ning ma'lumotiga qaraganda chang cholg'uvchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Risoladagi ta'rif bo'yicha cholg'u asboblarning yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qubuz, g'ijjak, o'sha davrda juda keng tarqalgan cholg'ular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblida uyg'un jo'r ovoz hosil qiladigan torli-noxunli va torli-kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Taniqli cholg'uchi Darvish Alidan ud va chang chalish mahoratini egallagan, uning shogirdi, mohir sozanda Mavlono Zaynullo Bedaniy Rumiy ko'pgina peshrav (Isfaxon, saqil, peshrav va boshqalar) ijodkori edi.

A.Navoiy (1441-1501) o'zining "Xamsa" sida yozilgan dostonlaridan biri "Sab'ai Sayyor" da Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani yangicha talqin etadi. Asar qahramoni-chang cholg'usini Dilorom deb atagan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'ularini o'z asarlarida Firdavsi-Ozoda, Navoiy-Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb ataganlar.

Changning tuzilishi

Hozirgi qo'llaniladigan chang cholg'usi O'rta Osiyo va boshqa xalqlar orasida keng uchraydi. Changdan o'zbek, tojik, uyg'ur va rus xalqlari ham keng foydalanadilar. Ruslar uni «Simbal» deb atashadi. U tut, yong'oq, o'rik va boshqa yog'ochlardan yasaladi. Changning quloqlari 76 ta bo'lib, u chang korpusining o'ng tomoniga o'rnatiladi, pardalari xromatik yarim tonlikdan iborat. Changda turli millat musiqa asarlarini, hamda G'arbiy Ovroqpa klassik kompozitorlarining yirik va murakkab asarlarini ijro etish imkoniyati yaratildi. Uning diapozoni juda keng bo'lib, uch oktavaga yaqin. Changni chalish uchun ishlatiladigan cho'p, g'arovdan yoki qamishdan ishlangan bo'lib, yumshoq ovoz berish uchun uchiga rezinka o'rnatiladi.

Chang ansambl va orkestrlarda eng asosiy boshlovchi rolni o'ynaydi. U yakkavozlikda ham mashhur bo'lib, yuqori texnikaviy asarlarni ijro etish uchun qulaydir. Chang sozining mohir ijrochilaridan marhum Faxriddin Sodiqov, Matyusuf Xarratov, Fozil Xarratov, Tilash Xo'jambardiyev, San'at Ruzmatovlarning porloq xotiralari qalblarda abadiy saqlanadi. Hozirgi kunda xalqimizga xizmat qilib kelayotgan changchilar: Ahmad Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Abdurahmon Xoltojiyev, Baxtiyor Aliyev, Temur Mahmudov, Abdusalom Mutalov, Tohir Sobirov, Ismoil Jobirov, Xurshida Muhammadqulova va boshqalar.



O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, chang sinfi bo'yicha ustoz, yetuk sozanda, "Changchi qizlar" dastasining badiiy rahbari Ahmad Odilov.



Ustos va shogirdlik an'analari. Professor Ahmad Odilov o'z shogirdlari bilan.

MUSIQA CHOLG'ULARINING SOZLANISHLARI VA TOVUSHQATORLARI.

PUFLAMA MUSIQA CHOLGULARI.


Nay.



Surnay.



Qo`shnay.



URMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Chang.




Qonun.



MIZROBLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.

Ud.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Tanbur.




Tovushqatori.



Sozlanishi.



Tovushqatori.




Qashqar rubobi.

Sozlanishi.

CHERTMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.


Sozlanishi.

Dutor.




KOMONLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

G'ijjak
alt.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

G'ijjak
bas.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

**G'ijjak
kontrabas.**



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Sato.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

**Manzur
sato.**




Tovushqatori.





Nurilla soznavoz.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



SOZ - musiqa cholgʻularini yasashi maʼnolarini anglatadi. Fors va Tojik tillarida ustochilik ishlariga tegishli kasblarda “Soz” soʻzi ishlatiladi. Rasul Xodizoda Buxorolik mashhur tanburnavoz Qori Karomatulloh Tanburiy Buxoroiy toʻgʻirisida yozgan “Tanburi Dilkash” kitobida Qori Karomatulloh bir xalq ustosining huzuriga kelib, “Ba man yak tanbure nagʻz soz” yaʼni “Menga bir yaxshi tanbur yasab ber” deydi. Undan tashqari soz soʻzi koʻpgina ustochilik sohalarida, yaratish, bastalash maʼnolarini ham anglatadi.

Ohangsoz – musiqa bastalovchi bastakor. **Soatsoz** – soat tuzatuvchi usto. **Asbobsoz** – musiqa cholgʻularini ixtirochilari. **Sozlash**- musiqa cholgʻulari torlarini muayyan bir ovozga, tovushga sozlanishi maʼnosini ham anglatadi. Masalan: tanbur “sol” va “re” tovushlariga, dutor “lya” va “mi”, qoʻshmay “re”, rubob “lya” va “mi”, chang “sol”, nay “lya” tovushlariga sozlanadi va hokazo.

1978 yilda Toshkent qishloq xoʻjalik institutiga xorijdan ikkita talaba tahsil olgani kelgan. Ular oʻzlari bilan soz cholgʻusini ham olib kelishgan.

Ulardagi soz ta'mir talab bo'ladi va natijada ular Toshkent davlat konservatoriyasining ustaxonasida faoliyat ko'rsatayotgan buyuk xalq ustosi Usto Sirojiddinga murojaat qilishadi. Usto Sirojiddin bu cholg'uni ta'mirlab, undan aynan nusxa oladi. Dutor sinfi bo'yicha ustoz Boqijon Rahimjonov bu cholg'uni ijrosini o'rganib ko'pgina shogirdlariga o'rgatadi. Ba'zi maktablarda soz cholg'uchilar dastasini ham tashkil etadi. Hozirgi kunda barcha Oliy, O'rta musiqa dargohlaridagi "An'anaviy ijrochilik" bo'limlarida bu cholg'uning ijrosi o'rganilmoqda.



Rubob ijrochilik maktabini yaratgan ustozlar, buyuk sozandalar, bastakorlar, O'zbekiston Xalq artisti Muhammadjon Mirzoyev va farzandlari maqom asarlarning yetuk bilimdoni O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Shavkat Mirzayev.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



4 – Mavzu: Torli-mizrobli musiqa asboblari guruhi

UD

Ud juda qadimiy musiqa asbobidir. Uning bizga ma'lum bo'lgan dastlabki shakli Ayritomdan topilgan. Eramizning birinchi asrlariga oid ajoyib madaniyat yodgorligida o'z aksini topgan. Ud arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. U birinchidan, yog'ochi qora tusli daraxatning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan «iyd» iborasining ma'lum shaklidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyatni bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin.

Udning dastlabki nomi «Barbad» bo'lganligini ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib Bar-qomat, bad-o'rdak ma'nolarda keladi. Barbad qorni katta va dastasi kalta musiqasi asbobidir. Unga o'rdak qomatiga o'xshagani uchun barbad nomi berilganmish. Barbad ko'p manbalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos bo'lgan, deb ko'rsatiladi. Uning eng takomillashgan keyingi shakli go'yo ud emish.

Ud qariyb XVII asrlargacha yashagan, deb taxmin qilinadi. Keyinchalik esa O' rta Osiyoda iste'moldan chiqib ketgan hamda udning xususiyatlari va funksiyasini bajara oladigan boshqa qadimiy musiqa asboblari uning o'rnini ola boshlaydi.

O' rta Osiyo xalqlarining, jumladan o'zbek, tojiklarning cholg'u asboblari rang-barangdir. Albatta, bu xalqlarning madaniyati qadimdan boy bo'lganligi, tinmay rivojlanganligidan dalolat beradi.

O' rta Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar al Forobiy (X), Abu Ali ibn Sino (X-XI), Qutbiddin Sheroziy, Safiuddin Urmaviy (XIII-XIV), Abdul Qodir Marog'iy (XV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Darvish Ali Changiy (XVII asr) singari mutafakkir olimlar ijodlarining bir qancha mavzularini musiqa faniga bag'ishlaganlar.

Bizning davrimizga kelib, hozirda ud cholg'usi kavkaz xalqlarida, arablarda, eron, turk va boshqa xalqlarda iste'moldan chiqmagan holda qo'llanilib kelinmoqda. Yaqin yillar davomida o'zbek va tojik xalqlari orasida ham sozandalarda qiziqish uyg'ondi, qolaversa, respublikamiz musiqa san'atining jonkuyarlari tashabbusi bilan ud cholg'usini mukammalroq o'rganib ya'ni, xalqimizning qadimiy musiqa asboblari qatoriga qo'shishdek xayrli ishlar olib borilmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, buyuk olimlar, mumtoz adabiyotimizning ulkan shoirlari, musiqa san'atini chuqur tahlil qilgan holda, inson salomatligi-yu ruhiga, tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, qolaversa, inson hayoti go'zalligini ajralmas bo'lagi va ramzi, deb o'qtirganlar.

Qadimiy udlar, avvalo ikki torli bo'lib, ular «zir» va «bam» deb nomlangan. Bam-pastdagi, zir-yuqoridagi ingichka tor. Keyinchalik uch-to'rt torli bo'lgan. Al-Forobiy esa unga beshinchi torni o'rnatgan. Ana shundan buyon ud cholg'usining

asosiy torlari beshta juft tordan iborat. Oltinchi tori (bitta tordan iborat) esa ayrim kuylar ijro etilganda qo'shib chalinadi.

Qadimda udning torlari ipakdan ishlanganligi ayrim musiqa risolalaridan bizga ma'lum. Oltinchi tor esa taxminan yaqin yillardan beri ishlatila boshlandi. Bu tor ud cholg'usining tembri, ya'ni tovushining yanada boyitdi.

Udning tuzilishi

Ud asbobi kosa, dasta, bosh qismdan tashkil topgan. Kosasi-bir-biriga yopishtirilgan bir necha qovurg'asimon taxtachadan iborat. Ustiga yog'ochdan tayyorlangan qopqoq zich qilib biriktiriladi. Qopqoqda uchta rezonator-ovoz tebranib chiqadigan teshik bo'lib, ustiga torlar tayanadigan xarrakni zich qilib tutashtiriladi.

Dasta-kosaga mahkam biriktirilib, unga parda bog'lanmaydi. U g'ijjak dastasiga o'xshab sof, tekis bo'ladi. Udning bosh qismi, torlarni mahkamlash va tortish uchun mo'ljallangan bo'lib, unga 11 ta yog'och (beshtasi o'ng va oltitasi chap tomonda) o'rnatilgan. Udning bosh qismi bilan dasta tutashgan yerda shayton xarrak joylashgan. U ochiq torlarni tayanchi hisoblanadi. Udning ishchi qismi ana shu yerdan boshlanadi.

Udning sozlanishi

San'atshunos olimlar va musiqa nazariyotchilarning ilmiy risolalariga qaraganda ud sozining birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi juft torlari oralig'ining sozlanishi sof kvartadir. Faqat eng pastki torlari ya'ni to'rtinchi bilan beshinchi va beshinchi bilan oltinchi torlarining oralig'i katta sekunda intervalida sozlangan.

Oltinchi tor **«sol»** kichik oktava, beshinchi **«lya»** kichik oktava, to'rtinchi **«si»** kichik oktava, uchinchi **«mi»** birinchi oktava, ikkinchi **«lya»** birinchi oktava, birinchisi **«re»** ikkinchi oktava.

Udning umumiy ijrochilikdagi imkoniyati keng bo'lishiga qaramasdan, bizning an'anaviy ijrochilikdagi uslubimizga har bir pardasidan kuy jumlasini boshlaverish to'g'ri kelmasligi, amaliy o'zlashtirishimizda o'z ifodasini topdi. Ana shu imkoniyatlarni va ko'pgina maqom kuylarimizning diapozon jihatidan kengligini inobatga olgan holda, ud soziga biroz o'zgartirish kiritdik. Ud torlarning yuqoridan birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi juft torlar oralig'idagi sozini saqlagan holda, to'rtinchi bilan beshinchi tor oralig'ini sof kvartaga, beshinchi bilan oltinchi tor oralig'ini esa katta sekunda moslab sozladik. Misol uchun **mi, fa#, si, mi, lya** va **re**. Darslikka kiritgan kuylar ham ana shu o'zgartirilgan sozga mo'ljallangan. Kuylarni notaga olishda **sol** kaliti (yoki skripka kalitida) yozilishida, yosh mutaxassis sozandalariga bir oz qulaylik yaratilishi mumkin.

Rubob

Rubob cholg'usidan uyg'ur, o'zbek, tojik va boshqa xalqlar ham keng foydalanadilar. Qashqar rubobi tut, chinor, o'rik va boshqa qattiq yog'ochlardan ishlanib, kuchli jozibali, serohang, jarangdor tovushga ega.

Qadimgi o' yma ruboblarning pardalari ichakdan eshilib uning dastasiga bog'lanar edi. Shu ruboblarning tovushqatori diatonik joylashgan bo'lib, maqomlar va mumtoz kuylarimiz ijro etilardi. Endilikda esa, 1936 yildan boshlab, barcha o'zbek musiqa cholg'ularimiz qatori rubob ham takomillashtirilib, xromatik tovushqatorga ega bo'ldi. Bu esa butun dunyo xalqlari musiqa asarlarini, shuningdek G'arbiy Ovroq klassik asarlarini ham ijro etish imkoniyatini berdi.


O'z rubobi bilan xalq hurmatiga sazovor bo'lgan marhum sozandalarimizdan: Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Abbas Bahromov, Nusrat Inoqovlardir. Ular ijro etgan kuylardan bahramand bo'lib turish shu sinfda tahsil ko'rayotgan har bir bo'lg'usi rubobchining eng asosiy burchi hisoblanadi. Hozirgi kunda ijro etib kelayotgan rubobchilar: Qobil Usmonov, Tohir Rajabov, Rahmatjon Tursunov, Husan Nabiyeu, Anvar Inoqov, Rifatilla Qosimov, Rustam Karimov, Ari Boboxonov, Olimboy Rahmonov, Ravshan Hamroqulovlardir.

Rubobning sozlanishi

Rubobning kosasiga asosan baliq terisi ba'zi hollarda buzoqning yurak terisi ham qoplanadi. Rubob notasi yozilishidan ko'ra bir oktava past sozlanadi (ovoz beradi). Rubob besh tordan iborat. Uning birinchi tori juft bo'lib, fortepianoning yoki changning birinchi oktavadagi **lya** pardasiga va ikkinchi tori ham juft bo'lib, **mi** pardasiga, oxirgi ichakdan eshilgan yo'g'on tori bitta bo'lib, u chalinadigan kuyining mohiyatiga qarab, **si** yoki **lya** pardasiga sozlanadi.

Rubob xalq ansambli va orkestrda yetakchi vazifani bajaradi. Uning yoqimli tovushi mayin, serjilo, ohangi boshqa sozlardan ajralib turadi. Rubobning bir necha turlari bo'lib, ular rubob prima, rubob sekunda, rubob tenor deb ataladi.

Badaxshon musiqa cholg'usi



Badaxshon musiqa cholg'usi Baland zukom yoki Badaxshon tanburi navozandasi.

Afg'on rubobi

Afg'on rubobi Sharq xalqlarining o'tmishdan cholg'u asbobi hisoblanib kelingan. Ushbu afg'on rubobi Hindiston, Pokiston, Eron, Afg'oniston, O'zbekiston, Tojikistonda keng tarqalgan bo'lib, bizning davrimizgacha yetib kelgan qadimiy cholg'u hisoblanadi. Bu rubobning nomlanishi bir necha xil bo'lgan. Tojik rubobi, Buxoro rubobi, badaxshon rubobi deb ham ataladi. Ayrim risolalarda Hindiston rubobi deb yuritilgan.

Ushbu afg'on rubobi cholg'usi to'g'risida musiqashunos olim Al-Forobiy, Darvish Ali o'zlarining risolalarida ta'riflab o'tganlar. Afg'on rubobining mayin tovushi xuddi ud cholg'u asbobining tovushiga o'xshaydi, shakli esa boshqacharoq.

O'zbekistonda ushbu cholg'u asbobini afg'on rubobi deb yuritiladi. Bu cholg'u asbobi o'ziga xos shaklga ega bo'lib, chertib chalinadigan torli-mizrobli cholg'ular guruhiga kiradi. Ushbu cholg'uning yasalishiga kelsak, usti teri bilan qoplangan katta va chuqur o'yma kosasining toraytirilgan yon tomonlaridan yuqori qismiga yupqa qopqoq yelimlangandir. Odatda korpus bilan bir butun yo'niladigan yo'g'on dastasida ichakdan atigi to'rt parda bog'langan bo'lib, qolganlarining yog'och qopqog'i ustiga cho'p qalamchalar yopishtiriladi.

Odatda afg'on rubob beshta chalinadigan asosiy pay tor (shu jumladan, unison sozlanadigan 1-2-juft va 3-4 juft torlar) hamda yon quloq (go'shak) larga tortiladigan 10-11 ta aks sado beruvchi sim torlarga ega bo'lib, asosiy kuychan torlar o'zaro kvartaga sozlanadi. Aks sado beruvchi simlar esa, pog'onama-pog'ona ko'tariluvchi sekundalarni tashkil etadi. Afg'on rubobining diapozoni ikki

oktava bo'lganiga qaramay, deyarli professional xalq sozandalari ansambllarda va yakkanavoz ijroda keng qo'llaniladi.

Afg'on rubobining qayta ishlangan turi rubob tenor deb nomlanadi. Unda beshta tor bo'lib, hammasi ichakdan. Sozi kvarta intervali oralig'ida. 5-tor katta oktavadagi **si**, **lya** tovushiga, 4 va 3 juft torlar kichik oktavadagi **mi** tovushiga (unison), 2 va 1 torlar kichik oktavadagi **lya** tovushiga (unison) sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi katta oktavadagi **si** tovushidan ikkinchi oktavadagi **do**, **lya** tovushiga qadar. Notalar eshitalishiga nisbatan oktava yuqorida skripka kalitida yoziladi.

Tanbur

Xalq musiqa cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan, ilk cholg'ular eramizdan oldingi ikki minginchi yillarda paydo bo'lgan degan taxminlar bor.

IX-X asrlarda yashab ijod etgan musiqashunos olim Al-Forobiy tanburni shunday tasvirlaydi. Tanbur – bu forscha so'zdan olingan bo'lib, «**Tan**» bu yurak, dil degan ma'noni bildiradi. «**Bur**» esa kesmoq, qitiqlamoq, larzaga solmoq demakdir. Tanbur ham uzoq asrlardan beri o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlariga madaniy xizmat qilib kelayotgan sernola, serohang dilrabo milliy musiqa cholg'ularimizdan biri bo'lib, uni tinglayotgan shinavandalar qalbini larzaga solib kelmoqda.






O'zbekiston va Tojikiston hududidagi tanbur musiqa cholg'ulari

Tanburning yasalihi va sozlanishi

Tanburning kosasi tut yog'ochidan, dastasi esa, asosan o'rik, yong'oq va boshqa yog'ochlardan yo'nilib yasaladi. Dasatasiga esa ichak pardalar bog'lanadi. Ichak pardalar diatonik tovushqatorda joylashgan bo'lib, ba'zilarida esa xas pardalar joylashgan bo'ladi. Torlari misdan tortilib, «*Noxun*» deb ataluvchi metaldan ishlangan moslama yordamida chalinadi.

Tanbur fortepianoning kichik oktava ***sol-re*** tovushiga sozlanadi. Asosan tanburda bitta chaluvchi, va ikkita ba'zan uchta sadolantiruvchi torlar bo'ladi.

Mashhur tanburchilardan Rixsi Rajabiy, Shobarot Tanburchi, Usta Ro'zimatxon Isabayev, Emmanuel Barayev, Shohnazar Sohibov (Tojikiston) va boshqalar. Hozirgi kunda xizmat qilib kelayotgan tanburchilar Turg'un Alimatov, Abdulla Umarov, Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboyev, va boshqalar.



Usto Usmon Zufarovning tanbur va sato cholg'ulariga ishlagan bezaklari.

Dutor

Dutor juda qadimiy musiqa asbobi, uning paydo bo'lish tarixiga kelsak, eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha so'z bo'lib ikki tor degan ma'noni bildiradi.

Dutor asr-asrlardan o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'lmay, balki uni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi.

Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo'llanilayotgan dutor-**alt** deb ataladi. Bu cholg'u kichik oktava **lya** va **mi** notalarga sozlanadi. Dutorga o'xshash cholg'uni, qozoqlarda «**Do'mbira**», qirg'izlarda «**Qo'buz**» deb atashadi.

Dutorning yasalihi

Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadim o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dutor dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'llari ijro etilardi) bog'langan va bu dutorlarni xalq dutorlari deyilgan.

Dutor yasalihi jihatdan ikki qismdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, ularni birlashtiruvchi qismini «**Bug'iz**» deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasalihi mumkin. «**O'yma dutor**» Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qobirg'ali dutor ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi.

Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mm ni tashkil etadi.

1936-37 yillarda Toshkentda o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog'och pardali, kapron torli yangi dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali o'qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda. Dutor haqida gap borganda, albatta, uning mohir ijrochilarini eslab o'tish joizdir.

Mashhur dutorchilar: H.A.Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiylar dutor cholganlarida kishilar og'ir sukunatga cho'mib, olam-olam ma'noli hissiyotlar ummoniga botar ekan. Ulardan keyin esa Shokir Sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To'xtamurod Rasulov va boshqalar.

Hozirda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G'ulom Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov, Mirsodiq Ergashev, Ro'zibibi Hojiyeva, Malika Ziyayeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar.

Dutor prima

Dutor prima dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog'i tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o'rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastasini o'yib xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlar kvarta bo'yicha birinchi oktavadagi **mi** va **lya** ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Xajmi kichik oktavadagi **mi-lya** dan birinchi oktavadagi **sol** va ikkinchi oktavadagi **do** ga qadar. Dutorlar oilasiga mansub bu cholg'u asbobi eng baland tovushga ega bo'lib, skripka kalitida yoziladi. Ikki kapron ipak toridan iborat ushbu cholg'u asbobi kvarta oralig'ida sozlanadi. Applikatura jihatidan rubob prima g'ijjak asbobiga o'xshab ijro etiladi. Masalan: pissikato, bidratma, stakatto va hokazolar.

Dutor primani sozlanishi birinchi tor (pastki tor) **mi** va ikkinchi tor (yuqorigi tor) **lya** tovushlaridir. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi **mi** tovushidan uchinchi oktava **lya** tovushiga qadar. Dutor prima orkestrda **solo** chalish va jo'rnavozlik vazifasini bajaradi.

Dutor sekunda

Yangi ishlangan dutorlar oilasiga kiruvchi ushbu dutor-sekunda cholg'usi, ovoz jihatidan o'rtacha registrda. Uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dutor primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya'ni dutorlarning kosasi bir xil bo'lib, dastasinng uzunligi har xil bo'ladi. Dutor-bas va dutor-kontrabas cholg'u asboblari kosasi katta bo'ladi. Dutor sekunda cholg'usining birinchi tori kichik oktava **lya** tovushiga, ikkinchi tori kichik oktava **re** tovushiga sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi **lya** tovushidan ikkinchi oktavadagi **re** tovushigacha.

Dutor-bas

Dutor-bas maxsus sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1948 yil ochilgan bo'lib, A.Nazarov ushbu sinfni tugatib, hozirgi kunda 1960 yildan buyon ushbu sinfda dars berib kelmokda. Dutor-bas iqtisosligi bo'yicha ijrochilarni tayyorlash va tarbiyalashda dosent A.K.Nazarovning xizmatlari kattadir. Dutor-bas asbobi o'zbek xalq cholg'u ansambli tarkibida bas tovushini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu asbobni sozanda o'tirgan holda ijro etadi.

Dutor bas-dutorning katta qilib ishlangan turi. Dutor basning to'rtta tori bo'lib, bular kvinta bo'yicha sozlanadi. To'rtinchi tor katta oktavadagi **do**, uchinchi tor katta oktavadagi **sol**, ikkinchi tor kichik oktavadagi **re** va birinchi tor kichik oktavadagi **lya** tovushlariga sozlanadi. **Lya** tori ichakdan qilingan bo'lib, qolganlari metaldandir. Notalar eshitilishi bo'yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi katta oktavadagi **do** dan birinchi oktavadagi **sol** ga qadar.

Dutor-kontrabas

Dutor kontrabasning kosasi katta-katta "Qobirg'alar" dan iborat bo'lib, dutor basdan ancha kattaroq qilib ishlangan. Dastasi dutor bas asbobidan uzunroq bo'ladi, quloqlari temir metaldan ishlangan bo'lib, qattiq, tortib turish vazifasini bajaradi. Dutor kontrabasning torlari juda qalin bo'lib, orkestrda o'zining yo'g'on bas tovushi bilan, pastki registr tembrini mustahkamlaydi. Dutor kontrabasning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha o'rnatilib, o'tirgan holda ijro etiladi.

Qonun

Qonun yaqin va o'rta Sharq mamlakatlari cholg'usi hisoblanadi. Xususan, qonun cholg'usi Forobiy tomonidan musiqa nazariyasining qonuniyatlarini ifoda etuvchi cholg'u sifatida ixtiro etilgani haqida ma'lumotlar bor. Bu cholg'u Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Sharqiy Turkiston markaziy Osiyoda keng ishlatilgan.

XVII asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan «**Risolayi musiqiy**» da qonunning qadimiy cholg'u asboblaridan ekanligi qayd qilinadi. Bu cholg'u bizda XX asrning 30-yillardan boshlab ishlatilmadi va nihoyat 1978-1980- yillarda mohir sozanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan yanada qaytadan o'lkamizga olib kelindi va ishlatila boshlandi.

Cholg'ular haqidagi kitobning arfaga bag'ishlangan bo'limida, Forobiy eslatgandek «**Ma'zif**» cholg'usi ovozining yo'nalishi jihatidan arfaga yaqin, sadosi ochiq torlarning tebranishi orqali hosil bo'ladi. Safiuddin Urmaviyning XII asr yozishicha, ikki turdagi qonun mavjud bo'lgan.

XV asrda «**Kanz-al-tuxaf**» nomli (anonim) fors traktatida qonun va nuzxa haqida rasmlar bilan ma'lumot berilgan. Muallifning yozishicha, qonun olxo'ri daraxtidan tayyorlangan yoki uzumning zangidan. Pastki qismining uzunligi 81 sm, qarama-qarshi qisqa tomoni 45,5 sm, qiya tomoni 74,25 sm. O'sha davrning qonunida 13 ta uchtalik torlar bo'lgan. O'ng tomonida xarrak, yana shu qiya tomonida quloqlar joylashgan.

Nuzxa qonunga nisbatan ikki barobar katta, shamshod, kiparis yoki qizil tol daraxtidan tayyorlangan. Ustki qismi (dekasi) ud sozinikiga o'xshash, juda ham yupqa qilingan. Torlarining bir qanchasi uchtalik. Ular butun ustgi qobiq bo'ylab tortilgan. Ular orasida bittalik turli uzunlikdagi torlar joylashgan. Quloqlar cholg'uning chap tomonida joylashgan. Nuzxani ham, qonun singari, ikkala qo'l barmoqlarida chalishgan.

Qonunning tuzilishi

Hozirda qo'llaniladigan qonun ko'p torli, yassi sathli, trapsiya ko'rinishdagi cholg'udir. Uzunligi 800-900 mm, eni 380-400 mm bo'lib, chinor, tut, yong'oq, o'rik daraxtlari yog'ochidan tayyorlanadi. Daraxt yog'ochidan yasalgan qopqog'i (deka) asosiy vazifani bajaradi. Dekaning ozroq qismi hayvon yoki baliq terisi bilan qoplanadi. Qopqoqning ustida turli gul shaklidagi uchta tovushxonasi mavjud. Pastki qopqog'i va atrofi aksariat hollarda klyon daraxti yog'ochidan yasaladi. Ustki qopqog'i oralig'ida 24-25 ta (uchtalik) ichak – yupqa torlari va ya'ni 72-75 dona torlar joylashgan. To'g'ri burchak shakldagi qismida teshik orqali torlar o'tkazib bog'lanadi va yopib qo'yiladi. Uchburchak shaklidagi qismida maxsus kalit bilan buraladigan yog'och quloqlariga, torlarning boshqa tomoni soat millariga qarama-qarshi ravishda o'ralib, maromiga yetgunga qadar sozlanadi. Teri qoplamining ustida torlar, ostida uzun yog'och xarrak joylashadi. Boshqa tomonidagi shayton xarrak orasidan simlar o'tkaziladi. Shayton xarraklari yonida 1-2-3 tagacha maxsus «*Urb*» moslamalari joylashtirilgan. Urb moslamalari ijro vaqtida torlarni kichik sekunda, katta sekunda va kichik tersiyagacha ko'tarib-tushirish imkoniyatini beradi.

Qonunga o'xshash cholg'ulardan: ruslarda ***Gusli***, latishlarda ***Kuokle***, estoniyada ***Kannel***, latviyada ***Konkles***, ozarbayjonda ***Cheng***, ukrainada ***Bandura***, osetinlarda ***Duadastanon***, G'arbiy Ovrupada ***Simbala*** deb yuritiladi.

Qonunni noxun va mediator bilan ijro etadilar. O'ng va chap qo'l ko'rsatgich barmoqlariga, ba'zida boshqa barmoqlarga ham noxun taqilib, barmoq va noxun orasiga mediator kiydirib ijro etiladi. Mediator 30-40 mm uzunlikda va 1,5-2 mm qalinlikda, eni esa 0,5-0,7 mm bo'ladi. Noxun esa bo'yi 25-30 mm, eni 10-15 mm bo'lib, sozandaning qo'lga osongina moslashtirish mumkin bo'lgan holda metaldan yasaladi.

5 – Mavzu: Torli – kamonchali musiqa cholg'u asboblari

G'ijjak

G'ijjak musiqa cholg'usi boshqa cholg'ular qatori juda qadimgi musiqa cholg'usi hisoblanadi. O'rta Osiyo halqlari, xususan o'zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan, kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'u asbobdir. O'tmishda g'ijjakning kosasi qovoqdan, kokos yong'og'i (norjil yong'og'idan) yasalib, ichini

kovak qilib o'yib yasalgan. Kosasinning ustiga baliq terisi va pufak qoplangan. Dastasi tut yoki yong'oq va o'rik daraxtlarining yog'ochlaridan ishlangan.

Dastlabki davrda g'ijjakda ikkita tor kvarta oralig'ida sozlangan, ba'zan ashulachilarning ovozig'a moslashtirib sozlashgan. Kosaning pastki qismiga tayoqcha o'rnatilib, ijrochining tizzasiga qo'yib, o'tirgan holda chalingan.

Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashib borgan sari kengaytirilib ishlangan. O'sha davrda g'ijjak unison, yakka tartibda, ansambl jo'rligida ham ijro etilgan. Kamonchasining qillari (otning dumidan ishlanadi) chalish vaqtida o'ng qo'l barmoqlari bilan tortib chalingan.

Abduqodir Marog'iy (G'oyibiy XV asr) "Musika ilmida ohanglar to'plami" risolasida kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi, musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

O'sha paytdagi eng yetuk ijrochi bo'lgan Ustoz Zaytuniy-G'ijjakiy, Shayx Ahmadiy Qobiziy, Amir Mastiy Hirotiy (Qobiz) lar halq cholg'u ijrochiligida muhim o'rin tutganlar.

Zahiriddin Muhammad Bobirning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ijrochilarni, shu jumladan ud chaluvchilarni, naychilar, g'ijjakchilarni o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. Bobirning ta'kidlashicha o'sha davrda mohir g'ijjak cholg'uchisi Shoh Quliy G'ijjakiy alohida o'rinda turadi.

XX asr boshlarida cholg'u ijrochilik san'ati ancha yuqorilab ketdi. Musika o'quv yurtlari, Toshkent Davlat konservatoriyasi tashkil qilinib, cholg'uchilik ancha ilgarilab ketdi. Yangi-yangi sozlar paydo bo'la boshladi. 1948 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida orkestr sinfi ochilib, bu yerda bir necha mutaxassislar har turdagi musiqa cholg'ularidan saboq bera boshladilar.

G'ijjakning sozlanishi.

G'ijjak cholg'usi torli-kamonli mukammal oila tarkibiga kiradi. G'ijjak qaytadan ishlanib, to'rtta tor (oldin uchta bo'lgan) joriy qilindi. To'rtinchi eng yo'g'on tor kichik oktavadagi **sol** ga, uchinchi tor birinchi oktavadagi **re** ga, ikkinchi tor birinchi oktavadagi **lya** ga va oxirgi birinchi tor ikkinchi oktavadagi **mi** ga sozlanadi. Uning umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi **soldan** to'rtinchi oktavadagi **lya** ga qadar.

G'ijjakning yasalihi.

G'ijjakning dastasi dumaloq emas, aksincha, skripka dastasidek yassi qilib ishlanadi. Oyoqchasi stulga o'tirib chalish uchun qulaylashtirilgan. Orkestrda chalish uchun g'ijjakning katta-kichik (g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontra bas) turlari mavjud. G'ijjak asosan tut va yong'oq daraxtlari yog'ochidan ishlanib, uning kosasiga baliq yoki buzoq yuragining terisi qoplanadi. G'ijjak cholg'usi

orkestrlarda eng asosiy, yetakchi vazifani bajaradi, yakkanavozlikda mashhurdir. Uning nota matni skripka kalitida eshtilishicha yoziladi.

O'zbekistonda yashab o'tgan mashhur g'ijjakchilardan Imomjon Ikromov, G'anijon Toshmatov, Shuhrat Yo'ldoshev, Muxtorjon Murtazoyev, Kommunar Komilov va boshqalar.

Hozirgi kunda xizmat qilib kelayotgan g'ijjakchilar: Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Salohiddin Azizboyev, Tursunboy Jo'rayev, Qahramon Komilov, Murod Toshmuxammedov, Ahmadjon Dadayev, Husan Fayzullayev, Erkin Xudoyberdiyev va boshqalar.

G'ijjak alt.

G'ijjak alt asosiy g'ijjakning bir oz kattaroq qilib ishlangan turi. G'ijjak alt asbobi XX asrning 50 yillaridan boshlab keng qo'llanib kelinmoqda.

G'ijjak alt sinfi (1949 yil tashkil qilingan) dan dastlab R.I.Felisant dars bergan. A.Xolmuhammedov 1954 yilgacha, G'. Qo'chqorov 1961 yilgacha, keyingi yillardan boshlab bu sinfga Murod Ibragimovich Toshmuhammedov rahbarlik qilib kelmoqdalar. Mashhur g'ijjak altchilar Qahramon Nazirov (konkurs sohibi), Jo'raboy Saidov (konkurs sohibi), Jasur Ergashev (konkurs sohibi) Husan Fayzullayev va boshqalar, hozirda oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'qituvchilik vazifasida tinimsiz mehnat qilmoqdalar.

G'ijjak alt yasalishiga ko'ra g'ijjakdan bir oz katta. Torlari kvinta oralig'ida sozlanadi. 4-tor kichik oktavadagi **do** ga, 3-tor kichik oktavadagi **sol** ga, 2-tor birinchi oktavadagi **re** ga va 1-tor birinchi oktavadagi **lya** tovushiga sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi **do** tovushidan uchinchi oktavadagi **lya** tovushiga qadar. Notalar alt kalitida yoziladi, (baland tovushlari) skripka kalitida yoziladi.

G'ijjak bas (Qobiz bas)

G'ijjak bas (Qobiz bas) sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1949 yilda tashkil qilingan. G.N.Ivanovning shogirdi X.Tursunov mazkur sinfning ilk bitiruvchisi bo'lgan.

G'ijjak bas cholg'usi asosiy g'ijjakning katta qilib ishlangan turi bo'lib, violonchel vazifasini bajaradi. G'ijjak basning torlari kvinta oralig'ida sozlanadi. 4-eng pastki tori katta oktavadagi **do** notasiga, 3-tor-katta oktavadagi **sol** notasiga 2-tori kichik oktavadagi **re** notasiga va 1-tor kichik oktavadagi **lya** notasiga sozlanadi. G'ijjak basning (Qobiz basning) umumiy ovoz hajmi katta oktavadagi **do** notasidan uchinchi oktavadagi **re** notasiga qadar. Notalari bas kalitida yoziladi, baland tovushlari skripka kalitida yoziladi.

Tajribali o'qituvchi violonchilist I.I.Shelpukning 1966 yildan g'ijjak bas (Qobiz bas) sinfiga rahbarlik qilishi bilan bu sohada mutaxassislar tayyorlash ishi ancha faollashdi. I.I.Shelpukni shogirdlari orasida konkurs sohibi Shohid

Qoraboyev (birinchi mukofot) va Yo'ldosh To'laganovlar alohida diqqatga sazovor bo'ldilar.

G'ijjak kontrabas (Qobiz kontrabas)

G'ijjak kontrabas (qobiz kontrabas) asosiy g'ijjakning eng katta qilib ishlangan turi, kontrabas vazifasini bajaradi. Torlari kvarta oralig'ida joylashgan. 4-eng pastki tori kontr oktavadagi **mi** tovushiga, 3-tor esa kontr oktavadagi **lya** tovushiga 2-tori katta oktavadagi **re** tovushiga va 1-tor katta oktavadagi **sol** tovushlariga sozlanadi. G'ijjak kontrabasning (qobiz kontrabas) umumiy ovoz hajmi kontr oktavadagi **mi** tovushidan birinchi oktavadagi **sol** tovushiga qadar. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. G'ijjak kontrabas (qobiz kontrabas) xuddi skripka kontrabasdek, tik turib chalinadi. Orkestrda asosiy fundament vazifasini bajaradi.

G'ijjak kontrabas sinfi ham 1949 yildan Toshkent Davlat konservatoriyasida ochilgan bo'lib, o'z faoliyatini 1953 yildan amaliy tarzda ko'rsata boshladi. Ushbu sinfda o'qib bitirib chiqqan S.Sayfiddinov 1960 yilgacha ishlab faol mehnat qildi, 1962 yildan 1974 yilgacha V.I.Serdyukovning shogirdi B.X.Abdurahmonov saboq bera boshladi. 1974 yildan esa ushbu sinfga I.U.Sulaymonov rahbarlikni davom ettirib kelayapti. Ushbu kontrabas sinfidan konkurs sohiblari Sayid Maxmud Xo'ja Akbarxo'jayev (1974 yil birinchi mukofot), Baxtiyor Otayev (ikkinchi mukofot 1974 yil) bo'lganlar. Yana iqtidorli g'ijjak kontrabas sinfini tugatgan .

Qobiz

Qobiz-qovuz torli-kamonchali musiqa cholg'usi hisoblanadi. Professor Fitratning yozishicha, qobiz eng eski turk cholg'usidir. Qobuzning tori ikkita bo'ladi. Har bir tori bir to'plam qildan iboratdir, ot quyrug'idan olinadi. Birinchi torning qillari ikkinchi tordan ozdir. Turkning ibtidoi zamon shoirlari bo'lgan baxshilar-uzonlarning cholg'ulari qobuz erdi.

Mahmud Qoshg'ariyning «*Devon ul- lug'ati turk*» kabi eski turk lug'atida «*Qubiz*», «*Qubizlamoq*» kabi so'zlar bo'lganidek, Navoiy, Lutfiy Mirhaydar Manjub kabi ko'p chig'atoy shoirlarining asarlarida ham «*Qubiz*» ismiga uchramoq mumkin. Fitratning yozishicha, XVII asrda Darvish Alining ikkinchi risolasi Abdullaxon zamonidan Imomqulixon zamonig'acha mashhur bo'lgan musiqashunoslar: Buxorolik dutorchi Mahmud Ishok o'g'li, Toshkentlik Amir Fathiy, Samarqandlik Mavlono Boqiy zarduz, Hojagiy Ja'far qonuniy, qubizchi Hofiz Poyanda, Qubizchi Shayx Ahmad, Qubizchi Mirmastiy, balxlik Ustod Abdulloh naychi, tanburchi Xoja Navro'z, Husayn Uddi, G'ijjakchi Ustod O'zbek va boshqalar o'zbek musiqiy dunyosida beqiyosdirlar.

Qobiz musiqa cholg'u asbobi Qozog'istonda ham keng tarqalgan bo'lib, hozirgacha ijro etilib kelinmoqda. Qozog'istondagi cholg'u turi yasalishiga ko'ra, kosasi o'yilib ishlangan, bo'g'iz va dastasi bir butun yog'ochdan tuzilgan, kosaning pastki qismiga tuya terisi qoplanadi. Ot dumidan o'ralgan ikkita tor

taqiladi. Bu torlar kvarta ba'zan kvinta oralig'ida sozlanadi. Qobiz dasta va kosasi egilib yasalgani uchun, chalish vaqtida barmoqlar bilan torlar bosilganda, dastaga tegmaydi. Natijada qobizda to'ng'illagan tovush chiqadi. Qobizning ovoz hajmi ikki oktavaga yaqindir. Umumiy uzunligi 700 mm. Qo'rmong'ozi nomidagi halq cholg'u asboblari orkestri tarkibini kengaytirib, mukammallashtirish maqsadida, qobizning prima, alt, bas va kontrabas turlari ishlab chiqilgan. Qayta ishlangan qobiz turlari uch va to'rt torli bo'ldi. Qobiz yakka tartibda chalinganidek, ansambl va orkestrda ham ijro etiladi. Qobiz O'zbekiston, Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasi hamda Qozog'istonda ham keng qo'llanib kelinmoqda.

1934 yilda Qozoq bastakori, cholg'ushunos olim A.K.Jubanov musiqa cholg'usi, qobizning turdosh oilasini yaratdi. Qobizning alt, bas, kontrabas turlari yaratildi. Xromatik dumbra, daupaz, kichik baraban va uchburchak turkumlaridan tuzilgan, rekonstruksiya qilingan cholg'ulardan orkestr tuzdi. Qobizning alt, bas, kontrabas turlari orkestrda muhim vazifani bajarib kelayapti. Qobiz kontrabas cholg'usi ijrosida Baxtiyor Otayev va Sayid Mahmudxo'ja Akbarxo'jayev konkurs sovrindorlari bo'lishgan.

Sato

O'rta asr musika ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa aboblarini chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiŕachilari va shoirlari ham bo'lishgan.

O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atinnng asosiy ko'rinishlari shakllanib, cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari, mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur-sato haqida ibratli mulohazalar bildirgan, hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan.

Satoning tuzilishi

Sato musiqa cholg'usi tashqi ko'rinishidan tanbarga o'xshaydi. Satonnng kosasi nozik o'yilib tut, o'rik yoki yong'oq daraxtinpng yog'ochidan yasaladi. Sato cholg'u asbobini noxun bilan chalsa ham bo'ladi, uning uchun faqat, kosada o'rnatilgan maxsus xarrakni o'rniga, tekis qilib yasalgan xarrak qo'yish kerak, chunki ijro etilayotgan vaqtda torlarning sadosi va yuqori ijro imkoniyatida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sato cholg'usining ovozi bir oz fig'onli, dardlidir. Ijro etish paytida, sato cholg'usidan chiqqan tovush, insonni xayol og'ushiga olib ketadi. Taralayotgan

kuy eshituvchiga shunday ta'sir qiladiki, hatto eshituvchi o'z gavda qismini tebranayotganini ba'zan sezmay qoladi. Turg'un Alimatovning chalgan kuylari bunga misol bo'la oladi. Turg'un Alimatov (O'zbekiston xalq artisti) mohir usta tanburchi, dutorchi va sato asbobini dilkash, joziba bilan ijro etadigan sozandalarni eng yetakchisidir.

Sato cholg'usini asosan O'zbekiston va Tojikistonda takomilashganini bilamiz. Sato asbobi asosan kamon bilan ijro etiladigan cholg'udir, xuddi g'ijjakni ijrosidek, o'tirgan holda chalinadi. Satoning dastasiga ichakdan pardalar (ladlar) o'raladi, g'ijjakda esa dasta silliq bo'ladi. Satoning yupqa qilib o'yilgan kosaxonasining shakli tanbur cholg'u asbobidan bir oz katta bo'ladi, qopqog'i ham shunga mos bo'ladi. Sato dastasining uzunligi tanbur cholg'usidek uzun bo'lib, yo'g'on ichak tordan uch o'ramda bog'langan, pardalar, hamda kosaxonasi qopqog'iga yopishtirilgan xas pardalar bor. Xaspardalar yog'och qalamchalardan iborat bo'lib, tanbur va sato asboblarining kosasining qopqog'iga yopishtiriladi.

Ovoz hajmi ikki yarim oktavadan kengroq doirada diatonik tovushqatorni hosil qiladi.

Asosiy torlari soni uchta ba'zan to'rtta bo'lib, bu torlar metal, misdan iborat bo'ladi, ularning, ya'nn torlarining jo'rlanishi xuddi tanburni sozi kabi birinchi va uchinchi (ikkun chetdagisi) unisonga, ikkinchisi (o'rtadagisi) ikki chetdagilarga nisbatan kvarta va kvinta ba'zan sekunda pastga sozlanadi. Asosiy sozlar ostida joylashtirilgan hamda yon quloqlariga tortilgan aks sado beruvchi torlari esa, xuddi afg'on rubobi singari sekunda oralig'larida sozlanadi.

Ammo hozir O'zbekistonda ishlatiladigan sato nusxalarida bunday aks-sado yo'q. Usta Usmon Zufarov tomonidan ishlab yaratilgan satolar o'ziga xos yoqimli va shirali ovozga ega. Sato cholg'u asbobini o'tirgan holda, chap tizza ustiga qo'yib, kamon bilan ijro etadilar. O'ng qo'l bilan kamonni chapga va o'ngga tortib, o'ziga xos usullar va uslublar bilan ijro etadilar.

7 – Mavzu: Puflab chalinadigan musiqa cholg'u asboblari.

Nay

O'zbek halq cholg'u asboblaridan yana biri naydir. Nay asbobining paydo bo'lishi ham qadim o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek halq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrli taraqqiyot davomida, o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. Tuzilishlari o'zgarmagan holda nay, surnay, karnay, bo'lamon va boshqa puflab chalinadigan musiqa asboblari an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Nay cholg'usi nafaqat O'zbekiston va Tojikistonda, balki Buryati, Mangoliya Respublikasi, Xitoyda ham keng tarqalgan. Bu cholg'u turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: O'zbekiston va Tojikistonda **nay**, Buryat va Mangoliyada **limba**, Xitoyda **li** deb yuritiladi.

Nay musiqa asbobi yakka cholg'u, ansambl va orkestrlarda chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan, xalq kuylarida, maqomlarda, ansamblida ko'proq yetakchi

vazifasini bajaradi. Tuzilishiga ko'ra barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikcha, diatonik tovushqatorga ega bo'lib, umumiy ovoz hajmi birinchi oktava **lya** dan to'rtinchi oktava **re** gacha. Notalar skripka kalitida yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yoki yarim berkitish, yarim yoki butun tonlikni tashkil etadi. Turlicha puflash yo'li bilan esa, baland-past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan teshigi va barmoqlar bilan yopadigan birinchi teshikcha o'rtasida yana bir teshikcha bo'lib, bunga yupqa qog'oz yopishtiriladi (bu asosan Xitoyda qo'llaniladi). Bu uslub tovushni to'liqlantirib chiqarishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to'rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda va qolgan ikkisi ort tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm bo'lib, yog'ochdan, g'arovdan, qamish va misdan yasaladi. Shunga ko'ra «**Yog'och nay**», «**Mis nay**», «**G'arov nay**» deb ataladi. So'ngi yillarda nayni kichraytirilib ishlangan turi qo'llanila boshladikim, bu kichik nay «**Nay pikkola**» deb ataladi. Nayning ovozi juda yoqimli. Bu asbob ikki holatda, ya'ni o'tirib va tik turgan holatda ijro etiladi. Nay fortepianoning yoki chang asbobining **lya** notasiga sozlanadi.

Nay asbobida o'zining mohirona ijrosi bilan shinavandalar qalbidan chuqur o'rin olgan marhum ijrochilar: Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov, Jamil Kamolov, Isoq Qodirov, Mahmud Muhamedov, Rabbim Hamdamov, Yusufjon Dadajonov, Uzoq Mahmudov va Yashin Haqqulovlar.

Nay chalish sabog'ini olayotgan har bir yosh talabalarimiz yuqorida nomlari tilga olingan ustozlar hayotini va ular ijro etgan dilrabo ohanglardan bahramand bo'lishlari lozim.

Hozirgi kunda xizmat qilib kelayotgan mashhur naychilar: Mirza Toyirov, Halimjon Jo'rayev, Shukrullo Ahmadjonov, Ahmadjon Sobirov, Abdulahad Ergashev, Ilhomjon Javdotov, Halimjon Sharipov, Mansur Jomurodov va boshqalar.

Surnay

Surnayning paydo bo'lishi ham eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. IX asr oxirida samoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoni katta qismini birlashtirishga erishdi. Davlatning poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. O'sha paytlardayoq yakka navoz, ansambl musiqa ijrochiligi mavjud edi. Saroy a'yonlari tantanali marosimlarida ijro etilgan musiqa alohida o'rin tutgan. Odatda bir necha damli karnay, surnay va nog'ora asboblarining birgalikda chalinishi ansamblni hosil qilgan. Surnayni asosan saroy tadbirlarida, sayillarda va to'y-hashamlarda ijro etganlar. Surnay ko'p hollarda karnay, nog'ora va doira bilan birgalikda ijro etilgan.

XIX asrga kelib nay, surnay, bo'lamon musiqa asboblari ijrochilik amaliyotida mustahkam o'rin oldi. Musiqa ijrochiligida bir qancha musiqashunoslar yetib chiqdilar. Ijrochilikda yetuk bo'lgan ustoz Qurbon Sa'diy, ustoz Poyanda surnay va nog'orachilar bo'lganlar.

Darvish Alining guvohligi shuni ko'rsatadiki, o'sha paytda ham saroyda bo'ladigan bazmlar karnay, surnaysiz o'tmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Avgust Fedorovich Eyxgorn (1844 yil tug'ilgan) o'zbek halq cholg'ularini to'plagan, muallif surnayni qamish puflagichli qadimiy cholg'u, qo'shnayni qo'sh qamishli cholg'uga o'xshatgan. Bunday qo'shnay, surnaylarga ham o'zbeklar, qo'shiqqa mohirona jo'r bo'lganidek, jo'r bo'lishgan.

To'rt damli va urma cholg'udan ya'ni karnay, surnay, doira, nog'oralardan tuzilgan ansambllar Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Xorazm va O'zbekistonning boshqa shaharlarida turmushga keng qo'llanilgan. Ular, ya'ni surnaychilar halqning ijtimoiy hayotida, umumhalq, an'anaviy bayramlarda va oilaviy hayotda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Ayni paytda yakka cholg'u asbobi-surnayning imkoniyatlarini hisobga olib, maxsus ijrochilik dasturlari ("Surnay Irog'i", "Surnay Dugohi", "Surnay Qalandariy", "Surnay Navosi", "Shodiyona" "Miskin") kabi o'zbek xalq kuylari anchagina o'rin olgan. Mashhur karnay-surnaychilardan Qo'qonda qo'shnay va surnaychi Ashurali Mahram, Ahmadjon Umurzoqov, Xudoyberdi surnay Xorazmdan bo'lganlar.

1927 yilga kelib surnaychilar soni anchaga ortdi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek halq cholg'ularida ijrochilikning rivojlanishi bilan bir qatorda halq cholg'ulariga ham qiziqish kuchaydi. Shunga qaramay surnay sinfini takomillashtirish yo'lidagi o'rinishlar hali davom etmoqda.

Surnayning tuzilishi

Surnay o'zbek va tojik halqlari o'rtasida keng tarqalgan qadimiy puflama yog'och cholg'u asbobi. Unda ham chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikchasi bor. Yettinchi teshik esa, pastki tomonda bo'lib, buni chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Ovoz hajmi kichik oktava **lya** dan ikkinchi oktavadagi **mi** ga qadar cho'zilgan. Notalar eshitilganicha skripka kalitida yoziladi. Surnay ovozi baland bo'lganligi uchun ochiq havoda, turli tantanalarda (mikrafonsiz) chalinadi. Surnayning yasashda o'rik daraxtidan foydalanadilar va qamishdan tilchaga o'xshash maxsus puflagich o'rnatiladi.

Qo'shnay

Qo'shnayning paydo bo'lish tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qo'shnayning ilk namunalari to'g'risida Al-Forobiy o'zining musiqiy risolasida ta'riflab o'tgan. Qo'shnay iborasi, fors tilidan olingan bo'lib, qo'sh-juft yoki ikki nay degan ma'noni bildiradi. Qo'shnay musiqa cholg'usini yakka tartibda, ansambl jo'rligida va orkestr jo'rligida ijro etadilar.

XIX asr boshlarida o'zbek xalq cholg'u ansambllari tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, rubob, nay, qo'shnay, va doyralar kiritilgan. 1926 yilda tuzilgan 21 ijrochidan iborat bo'lgan truppani atoqli Davlat arbobi Muhiddin Qoriyoqubov

tuzgan va bevosita unga rahbarlik qilgan. Truppada Ahmadjon Umurzoqov qo'shnay chalgan.

Qo'shnayda xromatik tovush qatordan foydalanish va muayyan diapozonni aniqlash imkonini beradigan aplikatura ishlab chiqilishi bilan konservatoriyada qo'shnay ixtisosligi bo'yicha ta'lim berish zarurati tug'ildi.

Toshkent Davlat konservatoriyasida 1948 yil qo'shnay sinfi ochilgan bo'lib, uning ilk bor bitiruvchilari N.Nig'matov va K.Odilovlar bo'lganlar.

1970 yildan boshlab qo'shnay sinfini avval A.Odilov (changchi) boshqardi, endilikda esa M.Toyirov (naychi) boshqarib kelmoqda.

Qo'shnayning tuzilishi

Qo'shnayning tuzilishiga kelsak: ikki qamish naychadan iborat bo'lib, ularga maxsus tilcha o'rnatiladi. Qo'shnayni chalish uchun ikkita naychaga bir xil puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi **re** dan ikkinchi oktavadagi **sol** gacha (ayrim mashhur qo'shnaychilar ikkinchi oktava **lya**, **si** hatto bundan ham yuqori tovushlar hosil qiladilar). Qo'shnayda o'zbek musiqasi uchun xos bo'lgan musiqiy bezaklar (melizmlar) ni chalish juda qulaydir. Qo'shnayda kuy ijro etuvchi sozandani xalq orasida «**Qo'shnaychi**» deb yuritiladi.

O'zbekistonda mashhur qo'shnaychilardan Ahmadjon Umurzoqov, Ashurali Yusupov (rahmatli bo'lishganlar) iste'dodli yoshlardan Matrasul Matyoqubov (1958 yil tug'ilgan Urgench musiqa bilim yurtida o'qituvchi, ikkinchi respublika maqom ijrochilari konkursining sovrundori birinchi mukofot), Bahrom Sobirov (1945 yil tug'ilgan «Bahor» ansamblining sozandasi) Yo'ldosh Tojiyev (1960 yil) Urgenchda o'qituvchi va boshqalar.

Karnay

Karnay-qadimiy damli ya'ni puflab chalinadigan musiqa cholg'ular guruhiga kiradi. Karnayning tuzilishi asosan ikki, uch bo'lakdan iborat bo'ladi. Uzunligi esa ikki metrdan ortiqroq, puflab chalinadigan qismi oxirida mayda teshikcha bor. Karnay cholg'u ijrosida tovushlar sekunda intervaliga o'xshaydi va ikki xil intervaldan hosil bo'lgan tuvushlar chiqadi.

Karnayda asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi. Karnay ijrosi asosan bayramlarda, tantanali marosimlar, sayillarda, to'y-hashamlarda, surnay va nog'ora ba'zan esa doyra jo'rligida chalinadi.

Karnayning ovozi juda baland bo'ladi, shu sababli bo'lsa kerak, «**Navro'z**» bayramlari va har xil mavsumiy sayillarda xalqni yig'ilishlarga chorlaydi. Karnay musiqa asbobida kuy ijro etadigan sozanda «**Karnaychi**» deb yuritiladi.

Balabon.

Bo'laman balabon, bolaman-qadimiy o'zbek halq cholg'u asboblariidan hisoblanadi. Ushbu cholg'uning ham paydo bo'lish tarixi uzoq qadimiy davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyoning qadimiy Xorazm vohasida ilk bor paydo bo'lgan degan taxminlar ham bor. Chunki uning ko'proq ijrochilari, Xorazm xalqining aholisi va ularning musiqa ijrochilaridir. Balabon cholg'u asbobi ham odatda tut yoki o'rik daraxtining yog'ochidan yasaladi. Uni boshdan-oxiriga qadar parmalab ishlab chiqadilar. Shakli surnayga o'xshash, lekin undan bir oz kichikroq, nomi ham shundan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. Bolaman-ya'ni surnayning bolasiman degan ma'noni ham anglatadi. Balabonning uzunligi 300 mm bo'lib, yuqori qismiga o'rnatilgan (tili) qamishdan yasaliib, tayyorlanib P shaklida qirqiladi. Balabonda sakkizta teshik mavjud, uning yettitasi ustki va biri orqa tomonida joylashgan bo'ladi. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Tovush qatori diatonik bo'lib, kichik oktavadagi **re, re bemol** dan boshlab uch oktavagacha yaqinlashib boradi.

Balabonda yakka navoz ijro etish mumkin, shuningdek, ansambl va orkestrlarda ham chalinadi. Ikkinchi tarafdin balabon cholg'usi Arman, Gruzin, Dog'iston halq musiqa cholg'uchiligida ham ijro etiladi. Xuddi biznng balabondek, lekin nomlanishi har xil.

Muhammad Rahimxon Feruz zamonida eng yaxshi bo'lamonchi bo'lgan cholg'uchi Yoqub balabonchi, uning do'stlari Muhammad Yoqub Xarrat g'ijjakchi, Abdurahmonbek g'ijjakchi bo'lganlar. Bu cholg'uchilar Xorazm musiqasini rivojlantirilishiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan cholg'uchilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev K. «Nodir topilma» O'zbekiston madaniyati, 23 oktyabr 1973 y.
2. Abdullayeva S. «Zamonaviy Ozarbayjon musiqa cholg'ulari» Boku 1960 y.
3. Abdullayev S. «Qonun» darslik, A. Qodiriy nashriyoti, T., 2004 y.
4. Avedova N.A. «Iskusstvo oformleniya uzbekskix muzkalnix instrumentov» Toshkent «San'at» nashriyoti., 1959 y.
5. Akbarov Il. «Musiqa lug'ati» Toshkent «San'at» nashriyoti., 1997 y.
6. Akbarov Ik. «Doira ohanglari» Toshkent ., 1952 y.
7. Alimbayeva K. Axmedov M. «O'zbek xalq sozandalari» Toshkent., 1959 y.
8. Asqarov A. «O'zbekiston xalqlari tarixi» Toshkent., «Fan» 1992 y.
9. Bajenova «Pedagogik izlanish» Toshkent., «O'qituvchi» 1990 y.
10. Belyayev V. «Muzkalnoye instrument Uzbekistana» Moskva., 1933 g.
11. Bertels Ye.E. «Fors-tojik adabiyoti tarixi» Moskva., 1960 y.
12. Vizgo T.S. «Sudba Afrasiyabskoy lyutnya» Sharq musiqasi Toshkent., 1970 y.
13. Vizgo T.S. «Muzkalnye instrument Sredney Azii»

(Istoricheskiye ocherki) – Moskva., 1980 g.

14. Karomatov F.M. «O'zbek cholg'u musiqasi» Toshkent., Meros 1972 y.
15. Irgashev G'. «Afg'on rubobi» darslik Toshkent, «San'at» nashriyoti 2004 y.
16. Matyoqubov O. «Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida» Toshkent., 1986 y.
17. Nazarov A.K. «Dutor bas darsligi» Toshkent., «O'ituvchi» 1983 y.
18. Nurmatov H.N. «Rubob» darslik Toshkent., «O'qituvchi» 2002 y.
19. Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi» Toshkent.,1995 y.
20. Odilov A. «Chang» darslik, Toshkent., «San'at» nashriyoti 2002 y.
21. Petrosyans A.I. «Cholg'ushunoslik» 3-nashri Toshkent., «San'at» 1990 y.
22. Pugachenkova G.A. «O'zbekiston san'ati tarixi» Moskva., 1965 y.
23. Rajabov I. «Maqomlar masalasiga doir» Toshkent., 1963 y.
24. Rajabiy Yu. «Musiqqa merosimizga bir nazar» Toshkent., 1978 y.
25. Rajabiy Yu. «O'zbek xalq musiqasi» 1-9 tomlar 1949-1956 yillar
26. Rustamov S. «Tor maktabi» Darslik, Baku., 1960 y.
27. Toshmuhammedov M. «G'ijjak darsligi» Toshkent., 1995 y.
28. Taxalov S. «Afg'on rubobini chalishni o'rgatish metodikasi» T., 1983 y.
29. Fitrat A. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» Toshkent., 1993 y.
30. Qosimov R. «Ud» darslik, Toshkent., «San'at» nashriyoti 2002 y.
31. Qo'chqorov G'. «O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik» Toshkent., 2002 y.